

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**NARZULLAEVA DILNOZA SANATOVNA**

**BADIIY DISKURSDA INSONNING RUHIY-EMOTSIONAL HOLATINI**  
**TASVIRLASHNING LINGVOKOGNITIV XUSUSIYATLARI**  
**(ingliz va o‘zbek tillari misolida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2024**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим**

**Contents of the abstract of dissertation of Doctor of philosophy (PhD)  
in philological sciences**

**Narzullaeva Dilnoza Sanatovna**

Badiiy diskursda insonning ruhiy-emotsional holatini tasvirlashning lingvokognitiv xususiyatlari (ingliz va o‘zbek tillari misolida) ..... 5

**Нарзуллаева Дилноза Санатовна**

Лингвокогнитивные особенности описания психо-эмоционального состояния человека в художественном дискурсе (на материале английского и узбекского языков) ..... 27

**Narzullaeva Dilnoza Sanatovna**

Linguocognitive peculiarities of describing human’s psycho-emotional state in literary discourse (on the material of English and Uzbek languages) ..... 55

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 59

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**NARZULLAEVA DILNOZA SANATOVNA**

**BADIIY DISKURSDA INSONNING RUHIY-EMOTSIONAL HOLATINI  
TASVIRLASHNING LINGVOKOGNITIV XUSUSIYATLARI  
(ingliz va o‘zbek tillari misolida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar Vazirlarligi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/Fil1646 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.samdhti.uz](http://www.samdhti.uz)) hamda “ZiyoNyet” Axborot-ta’lim portalida [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz) manziliga joylashtirilgan

**Ilmiy rahbar:**

**Nasrullayeva Nafisa Zafarovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponenlar:**

**Kiselyov Dmitriy Anatol’evich**  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**Danieva Maysara Djamalovna**  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil «\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo‘ladi. (Manzil: 140104, O‘zbekiston, Samarqand sh., Bo‘stonsaroy ko‘chasi, 85A-uy. Tel: (99866) 233-78-43; faks (998966) 210-00-18; e-mail: [info@samdhti.uz](mailto:info@samdhti.uz)).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand, Bo‘stonsaroy ko‘chasi, 93. Tel.: (99866) 233-78-43, faks: (99866) 210-00-18.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2024-yil «\_\_» \_\_\_\_\_ dagi №\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi)

**A.A.Yaxshiyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi v.b., filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**G‘.Q.Mirsanov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Sh.S.Safarov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiyaning dolzarbligi va zarurati.** Jahonda lingvistika va adabiyotshunoslik fani sohasida til va inson munosabatiga e'tibor ortib bormoqda, ya'ni lisoniy hodisalar antropotsentrik paradigma kesimida tadqiq etilmoqda. Jahon tilshunosligida inson ichki olamini tasvirlash uchun tanlaniladigan lisoniy vositalar bilan bog'liq masalalarning dolzarbligi muntazam oshib bormoqda. Bu aspektda badiiy adabiyot matnlaridagi uslubiy-stilistik, fonetik, leksik, punktuatsion va pragmatik vositalar tanlanishi muhim rol o'ynaydi.

Jahonning etakchi ilmiy-tadqiqot maktablarida inson kechinmalari va hissiyotini badiiy aks ettirishning uslubiy vositalari hamda lingvokognitiv mexanizmlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratiladi, zero, har qanday badiiy asar syujeti muayyan miqdordagi personajlarga tayanadi, ular esa, tabiiy ravishda fikrlashadi, his qilishadi, boshidan kechirishadi hamda atrof-muhitning turli ob'ektlari va hodisalariga nisbatan o'z his-tuyg'ularini va emotsiyalarini ifodalashadi. Badiiy diskursda insonning lingvokognitiv xususiyatlarini, shuningdek, psixologik-emotsional holatini tasvirlashdagi uslubiy-stilistik va pragmatik vositalarini belgilash badiiy asar g'oyaviy jihatining eng yashirin qirralarini anglash imkonini beradi va badiiy matnni bir tildan boshqasiga o'girishga ko'maklashadi.

Mustaqil O'zbekistonda badiiy adabiyotga qiziqish faol rivojlanmoqda, chet tillarini o'qitish o'quv jarayoniga chuqurroq tatbiq etilmoqda, kutubxona va axborot-resurs markazlari esa, badiiy adabiyot nashrlari bilan boyitilmoqda. So'nggi yillardagi badiiy adabiyotga qiziqishning yuksalishi zamirida adabiyotning insonga o'tmishga nazar tashlash hamda personajlar hayotini o'rganish, ularning madaniyati, tarixi va maishiy turmushidan xabardor bo'lish imkoni taqdim etishi kabi xossalar yotadi. Chet tilini badiiy matndan foydalanish orqali o'qitish zamonaviy chet tili o'qituvchisi mehnatining ajralmas xususiyatlaridandir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Yoshlarni kitobxonlikka o'rgatish kerak. Faqat ushbu vazifalar bajarilgach jamiyatimizda kitobxonlik madaniyati paydo bo'ladi. Aynan ma'rifat va ta'lim xalqlarning gullab yashnashining kaliti, insonlarni savobga, ezgulikka, bag'rikenglikka yetaklovchi yo'ldir"<sup>1</sup>. Badiiy matn mutolaasi va tahlili nafaqat lingvistik, balki matnning ham lingvokognitiv, ham lingvokulturologik imkoniyatiga tayanadi. Matnlarda personajlarning psixik holatini tasvirlash maqsadida qo'llaniladigan turli uslublar va hissiy ta'sirchanlik bo'yog'iga ega birliklar, undovlar, tinish belgilarining vazifalari bilan bog'liq masalalar alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF – 4947-son, 2017-yil 16-fevraldagi "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-4958-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish

---

<sup>1</sup> <https://upl.uz>; <https://uzreport.news>.

konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi “O‘zbek tili davlat tili sifatida nufuzi va mavqeini tubda oshirish chora tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5850-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28 yanvardagi “2022-2026-yillardagi Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son, 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-son qarorlari va bu boradagi boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining 1.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” doirasidagi ustuvor yo‘nalishga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Badiiy matn antropotsentrizmi aspektida amalga oshirilgan va lisoniy vositalarning emotsionalligi va ekspressivligini yoritishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar yaratishgan xorijiy olimlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: J. Boase-Bier, G. Lakoff, Robert Plutchik, Henry Kellerman, E. Stankiewicz va b<sup>2</sup>. Masalan, E. Stankiewicz leksikaning emotivligi muammosini o‘rgangan, Robert Plutchik va Henry Kellerman tilda va matnda hissiyotlar nazariyasi rivojiga katta hissa qo‘shishgan.

Personajga badiiy matnda kechinmalar va hissiyotlar ifodalanishining o‘ziga xos “inson modeli” sifatida murojaat qilinganligini N.D. Arutyunova, M.M. Baxtin, N.S. Bolotnova, V.G. Gak, K.E. Izard, B.Kiterman, L.I. Komarova, A.N. Luk, G.G. Molchanova, T.G. Nikitchenko, V.I. Shaxovskiy va boshqa bir qator rus tilshunos olimlarining zamonaviy tadqiqotlarida<sup>3</sup> kuzatiladi. Masalan, V. G. Gak

---

<sup>2</sup> Boase-Bier J. Stylistic Approaches to Translation. – Shanghai: Shanghai Foreign Language Education, 2016. – 178 p.; Lakoff G., Johnson M. Metaphors we live by. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 256 p.; Robert Plutchik, Henry Kellerman. Emotion: Theory, research, and experience. Theories of emotion. – New York: Academic, 1980. – 343 p.; Stankiewicz E. Problems of emotive language. – The Hague: Paris, 1964. – 264 p.

<sup>3</sup> Арутюнова Н.Д. Знать себя и знать другого (по текстам Достоевского) // Слово в тексте и слово в словаре. – Москва, 2000. – С. 56-62.; Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – Москва: Искусство, 1986. – 423 с.; Болотнова Н.С. Филологический анализ текста. – Москва: Флинта: Наука, 2009. – 520 с.; Гак В.Г. Эмоции и оценки в структуре высказывания и текста // Вестник МГУ. – Серия 9. Филология, 1997. - № 3. – С. 87-95.; Изард К.Э. Психология эмоций / Перев. с англ. – СПб.: Изд-во «Питер», 2000. – 484 с.; Китерман Б. Эмоциональный смысл слова // ЖМНП. Новая серия. Часть 19. – СПб, 1999. – С.168-173.; Комарова Л.И. Антропоцентризм художественного текста // Вестник ТГУ, 2008. – Выпуск 8(64). – С. 99-103.; Лук А.Н. Эмоции и чувства. – Москва: Знание, 1972. – 79 с.; Молчанова Г.Г. Холистика текста (на основе триады: система – языковая личность – текст) // Языки в современном мире. – том 2. – Москва, 2004. – С. 64-93.; Никитченко Т.Г. Субъективный фактор в художественном тексте: лингвистический и психологический

matn va gap tuzilishida his-tuyg'ular va baholashni tadqiq qiladi. G.G.Molchanova badiiy matn semantikasining implikativ aspektlarini yoritadi.

Antropotsentrik paradigma va badiiy matnning ekspressivlik, emotsionallik va baholash masalalari mahalliy olimlardan A.Abdullaev, D.U. Ashurova, M.R. Galieva, N.M. Djusupov, I.S. Kaxarova, D.A. Kiselyov, I.K. Mirzaev, N.Z. Normurodova, B.X. Reimov, Sh.S. Safarov, G.M. Hoshimov, D. Xudoyberganova, A.R. Shaymardanov, M.M. Yuldashev va boshqalarning tadqiqotlarida<sup>4</sup> o'z ifodasini topgan. Masalan, D.U. Ashurova badiiy matnni madaniyat eksponenti sifatida talqin qiladi. B.X.Reimov insonning emotsional holatini tavsiflovchi ingliz tili frazeologizmlarini tahlilga tortadi. Sh.S.Safarov badiiy matnning lingvokognitiv xususiyatlarini o'rganadi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar institutining "Zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** ingliz va o'zbek badiiy diskursida insonni psixologik-emotsional holati tasvirlanishining lingvokognitiv, stilistik va pragmatik xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:**

insonning emotsional holatini tasvirlashning lingvokognitiv mexanizmlarini aniqlash;

badiiy matnlarda insonning ichki olamining tavsiflovchi uslubiy va pragmatik o'ziga xosliklarini belgilash;

ingliz va o'zbek tillaridagi badiiy asarlarda insonning ruhiy holatini tasvirlashdagi o'xshashlik va farqlarni aniqlash;

---

аспекты (на материале перевода): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Краснодар, 2000. – 19 с.; Шаховский В.И. Лингвистическая теория эмоций. – Москва: Гнозис, 2008. – 416 с.

<sup>4</sup> Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлик ифодалашнинг синтактик усули. – Тошкент: Фан, 1987. – 211 б.; Ашурова Д.У. Художественный текст как экспонент культуры // Актуальные проблемы современной лингвистики. – Ташкент: VNESHINVESTPROM, 2021. – С. 38-47.; Ashurova D.U., Galieva M.R. Stylistic of literary text. – Tashkent: Turon-Iqbol, 2016. – 271 p.; Джусупов Н.М. Когнитивно-стилистическая значимость принципа языковой экономии // Буюк ипак йўлида умуминсоний ва миллий кадриятлар: тил, таълим ва маданият. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Самарқанд-Шанхай, 11-12 октябрь 2021. – Б. 83-86.; Кахарова И.С. Инглиз ва ўзбек тилларидаги хис-ҳаяжон гапларнинг когнитив-прагматик талқини (Сомерсет Моэм асарлари мисолида) // PhD илмий даража ... дисс. – Тошкент, 2019. – 120 б.; Киселёв Д.А. Имплицитное содержание иронического высказывания в художественном тексте // Актуальные проблемы современной лингвистики. Сборник научных статей. – Ташкент: VNESHINVESTPROM, 2021. – С. 96-102.; Нормуродова Н.З. Вербальные маркеры дискурсивной личности автора и персонажа в свете антропоцентризма // Актуальные проблемы современной лингвистики. Сборник научных статей. – Ташкент: VNESHINVESTPROM, 2021. – С. 142-152.; Реимов Б.Х. Фразеологические единицы английского языка, характеризующие эмоциональное состояние человека: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 2005. – 28 с.; Сафаров Ш.С. Лингвистика дискурса. – Челябинск: Челябинский государственный институт культуры, 2018. – 315 с.; Хошимов Г.М., Хошимов М.Г. К лингвокогнитивной и лингвокультурологической компетенции носителя языка и переводчика // Актуальные проблемы современной лингвистики. Сборник научных статей. – Ташкент: VNESHINVESTPROM, 2021. – С. 198-204.; Худойберганава Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 65-66.; Шаймарданова А.Р. Ўзбек тилидаги матнларда шахс эмоцияси ва рухий ҳолатининг ифодаланиши. // ЎзМУ хабарлари. – Тошкент: ЎзМУ, 2015. - № 1/2. – Б. 187-189.; Юлдашев М.М. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фанлари д-ри ...дисс. – Тошкент, 2009. – 282 б.

ingliz va o‘zbek tillari materialida badiiy personajlarning psixologik olamini yoritish maqsadida qo‘llanilgan lisoniy vositalarni tarjima qilish metodikasini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob’ekti** sifatida ingliz va o‘zbek tillarida insonni psixologik-emotsional holatining badiiy talqini tanlangan.

**Tadqiqot predmetini** badiiy personajlarning psixologik-emotsional holati tasvirining lingvokognitiv mexanizmlari va lisoniy vositalari tashkil qiladi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot jarayonida deskriptiv metod (tavsifiy metod), adabiyotning tanqidiy, qiyosiy-taqqoslash tahlili; kognitiv-konseptual tahlil, kross-madaniy tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ingliz va o‘zbek tillaridagi badiiy matnlarni semantika, pragmatika va lisoniy vositalarning voqelanishi nuqtai nazaridan o‘rganish natijasida mental modellar, konseptlar hamda asar muallifi tomonidan hissiyotlarni bevosita va bilvosita tasvirlash orqali, personajlarning o‘zlarini gapirtirish va atrof-muhitdagi insonning emotsional holatini metaforik tarzda bayon qilish imkonini beruvchi tabiat hodisalarini tasvirlash vositasida, insonning salbiy va ijobiy hissiyotlarini aks ettiruvchi funksional qoidalar aniqlangan;

badiiy diskursda inson ichki olamining leksik-stilistik (ekspressiv, hissiy-ta’sirchan buyoqli so‘z va iboralar, undovlar, rangli ramzlar, frazeologizmlar) va sintaktik (talaffuz, tinish belgilari, gap tuzilishi) tavsifining o‘ziga xosliklari, muayyan psixologik reaksiyalar va emotsional baho bilan uyg‘unlashgan holdagi personajlarning o‘zaro munosabati belgilangan;

qiyoslanayotgan tillardagi badiiy matnlarda inson hissiyotlarini tasvirlashda verbal va noverbal vositalar orqali hissiyot tasvirlanishining o‘xshashliklari hamda insonning psixik holati bilan bog‘liq tarzda nutqiy faoliyatining individual stereotiplari aniqlangan;

ingliz va o‘zbek badiiy matnlari materialida konseptual mazmun yaxlitligi hamda kitobxonga emotsional ta’sir ko‘rsatish maqsadida personajlarning emotsional holatini tasvirlashning lisoniy vositalarini tarjima qilish bo‘yicha, tarjimonga qo‘yiladigan lingvistik bilimlar, olam borasidagi tushunchalari, yozuvchining g‘oyaviy-estetik imkoniyatlari hamda borliqni tasvirlashning individual prinsiplari to‘g‘risidagi bilimlari asosida uslubiy tavsiyalash ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari:**

badiiy matnni antropotsentrik paradigma aspektidagi talqinining nazariyasi va amaliyoti boyitilgan;

inson emotsiyasini tasvirlovchi ingliz va o‘zbek tilining lisoniy vositalari, jumladan, frazeologizmlar va maqolalarni qamragan holda, tasvirlanayotgan hissiyotlarni tipi va ularning ifodalanish usullariga muvofiq, alohida guruhlarga ajratilgan;

qiyoslanayotgan tillardan biridan ikkinchisiga insonning psixik holati tasvirlangan badiiy matnlarni tarjima qilish bo‘yicha takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** qo'llanilgan tadqiqot usullari, fundamental ilmiy-nazariy qoidalar, ko'p miqdorda tahlil qilingan materiallar, ushbu sohadagi oldingi tadqiqotlarning nazariy qoidalari tajribasi, shuningdek, tadqiqot natijalarining dissertatsiya ishining nazariy mazmuniga muvofiqligi bilan ta'minlanadi; xulosa, taklif va tavsiyalar amaliyotga tatbiq etilgan, olingan natijalar vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tanlanilgan mavzu doirasida, jumladan, boshqa tillar materiali asosida ham, tadqiqotlarni yana rivojlantirish istiqbollari ochib beruvchi tahlil va xulosalar asosida olingan natijalardan foydalanish bilan belgilanadi. Nazariy ma'lumotlar matn talqini, stilistikasi, kognitiv lingvistikasi, pragmatikasi, tarjima nazariyasi va amaliyoti resurslarini boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ular oliy ta'lim tizimida "Stilistika", "Pragmatika", "Tarjima nazariyasi va amaliyoti", "Matn talqini" kabi fanlardan darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishga, matn tahlil, kognitiv lingvistika, pragmatika bo'yicha maxsus kurslarni o'qitishga hamda ingliz va o'zbek tili mutaxassislarining nazariy va amaliy bilimlarini boyitishga xizmat qilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ingliz va o'zbek tilidagi insonning emotsional holatini tasvirlovchi badiiy matnlarni tadqiq etish asosida:

original va tarjima matnlarda insonning salbiy va ijobiy hissiyotlarini badiiy tasvirlash usullarini tahlili natijalari Samarqand davlat chet tillar institutida amalga oshirilgan Evropa Ittifoqining Erasmus+561624-ERR-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS + CBHE IMEP: "O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va halqarolashtirish" dasturi doirasidagi innovatsion tadqiqot loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023 yil 30 martdagi 831/30.02.01-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, o'qituvchilarning badiiy matnlarni talqin etish va tarjima qilish ko'nikmalari yaxshilangan, personajlarning emotsional holatini ularning nutqiy aktlari vositasida tahlil qilish malakasi rivojlangan va tilning insonning turli kechinmalari va hissiyotlarini tasvirlovchi uslubiy hamda pragmatik vositalari kompleksi o'rganilgan;

badiiy diskursda inson ichki olamining leksik-stilistik (ekspressiv, hissiy-ta'sirchan buyoqli so'z va iboralar, undovlar, rangli ramzlar, frazeologizmlar) va sintaktik (talaffuz, tinish belgilari, gap tuzilishi) tavsifining o'ziga xosliklari bilan tahlil qilish yuzasidan tavsiyalar Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan Tempus Project 544161-TEMPUS-1-2013-1-UK-TEMPUS-JPCR Aston University DeTEL: "Developing the Teaching of European Languages: Modernizing Language Teaching through the development of blended Masters Programmes" ("Magistrlik dasturlari asosida Evropa tillarini o'qitishni takomillashtirish va til ta'limini modernizatsiyalash") tadqiqot loyihasi dasturida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023 yil 30 martdagi 823/30.02.01-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, dissertatsiya materiallari va

tavsiyalari ingliz tilidagi badiiy adabiyotlar mutolaasi hamda tarjimasini tashkillashtirishda, original va tarjima matnlarini qiyoslashda, shuningdek, badiiy diskursda inson ichki olamini tavsiflashga xizmat qiluvchi turli-tuman pragmatistik vositalarni o'rganishda qo'l kelgan;

insoniy hissiyotlarni tasvirlash uchun zarur bo'lgan ingliz tilining lisoniy vositalari tahlili natijalaridan Samarqand davlat chet tillar institutida amalga oshirilgan "Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish" I-204-4-5 loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023 yil 30 martdagi 830/30.02.01-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, taklif qilingan material ingliz tili leksikasini chuqur o'rganishda va insonning turlicha hissiy holatlari bayoni aks etgan original badiiy matnlarni tarjima qilishda, shuningdek, ingliz tilidagi badiiy adabiyotlarni mutolaa qilish orqali chet tili bilimlarini mustahkamlanishiga ko'maklashgan;

ilmiy natijalar Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining STV davlat telekanalida yoshlar mavzusiga bag'ishlangan "Kelajak bunyodkori" madaniy-ma'rifiy ko'rsatuv stsenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2023 yil 11 apreldagi 01-07/125-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, tomoshabinlarning badiiy asar mutolaasiga ommaviy qiziqishlari ortgan, kishilarning umumiy dunyoqarashlari kengaygan, xususan yoshlarning ingliz tili va adabiyoti bo'yicha bilimlari saviyasi boyitilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 5 ta xalqaro va 3 ta respublika konferentsiyalarda ma'ruzalar ko'rinishida muhokama qilindi.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiyaning asosiy natijalari 14 ta ilmiy maqolada o'z aksini topgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasi tomonidan doktorlik ishining asosiy ilmiy natijalarini nashr etish uchun tavsiya etilgan nashrlarda, jumladan, 3 tasi respublika va 3 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, boblar bo'yicha xulosalar, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 134 sahifani tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, tadqiqot ob'yekti, predmeti va materiali aniqlangan; tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari keltirilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga tadbiq etilishi, aprobatsiyasi, nashr qilingan ishlar, natijalar va dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning “**Inson psixologik-emotsional holatining lisoniy ifodasini nazariy talqini**” deb nomlanuvchi birinchi bobida badiiy diskursdagi antropotsentrik yo‘nalishning lingvistik jihatdan o‘ziga xosliklari yoritiladi, ekspressivlik va emotsionallikni aks ettiruvchi lisoniy vositalar sanab o‘tiladi, shuningdek, badiiy diskursda insonning psixologik-emotsional holati tasvirlanishining lingvokognitiv mexanizmlari tahlil qilinadi.

Til va adabiyotdagi antropotsentrik yo‘nalish zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda yetakchilik qilayotganligi kuzatilmoqda. “Inson omili” deb nomlanuvchi voqelikning ahamiyati ortib borayotganligi ilmiy tafakkurning barcha sohalarida sezilmoqda<sup>5</sup>. Haqiqatan, til bevosita inson bilan, uning mavjudligi bilan bog‘liq va unga xizmat qiladi hamda u bilan sodir bo‘layotgan barcha o‘zgarishlarni qayd etadi. N.Maxmudov ham lisoniy hodisalar tadqiqiga antropotsentrik yondashuvni ma‘qullaydi, inson va til o‘rtasidagi aloqani ta‘kidlaydi, zero, aynan til inson shaxsiyatining asosiy unsuri hamda in‘ikosi hisoblanadi.<sup>6</sup> Matnni insonning nutqiy faoliyati hosilasi sifatida o‘rganilishini taqozo qiladigan, atrof-muhit va uning ob‘ektlarini individual tarzda idrok etilishining “ko‘zgusi” hisoblangan badiiy matnning antropotsentrik yo‘nalganligiga alohida e‘tibor qaratiladi<sup>7</sup>. Bu to‘g‘risida K.F.Sedov shunday yozadi: “Badiiy matn estetika qonuniyatlariga ko‘ra shakllantirilgan idrok dasturi bo‘lib, unda insoniy jonlantirilgan borliq modeli muallifning aksiologik nazari bilan fikrlovchiga – idrok etuvchiga uzatiladi”<sup>8</sup>.

Badiiy matnning antropotsentrizmi V.V. Vinogradov, E.A. Popova, M.M. Baxtin, Yu.N. Karaulov, E.A. Goncharova, I.P. Shishkin kabilarning tadqiqotlarida o‘rganilgan. Badiiy matn antropotsentrizmi inson va uning ichki olamini o‘rganishga yo‘naltirilgan. Badiiy asar asosida insonni anglash va uning ichki dunyosini yoritish, kitobxonga uning u yoki bu hatti-harakatini va sabablarini tushuntirish, shu bilan birga kitobxonga personajni idrok etish hamda fikran uning bosib o‘tgan yo‘lidan borib o‘tish imkonini berish maqsadi yotadi. M.M.Baxtinga tegishli mashhur, insonning har qanday matnda markazda turishi, unda o‘zini namoyon qilishi, aynan inson matnni yaratishi to‘g‘risidagi, fikr mavjud<sup>9</sup>. Chindan, matn murakkab insoniy muloqotlarning natijasi bo‘lib, badiiy shaklda bayon qilinadi, unda kommunikantlar sifatida bir tomondan muallif va kitobxon, boshqa tomondan, personajlar, bir-birlari bilan muntazam xarakterda va muloqotda bo‘ladigan asar qahramonlari, ishtirok etishadi. Badiiy matn g‘oyaviy-estetik va lingvokulturologik, o‘lkashunoslik va lingvokognitiv materialga boy manba hisoblanadi.

---

<sup>5</sup> Сафаров Ш.С. Лингвистика дискурса. – Челябинск: Челябинский государственный институт культуры, 2018. – С.3.

<sup>6</sup> Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 6-7.

<sup>7</sup> Чурилина Л.Н. Антропоцентризм художественного текста как принцип организации его лексической структуры. // Дисс. ... доктора филол. наук – Санкт-Петербург, 2002. – С.43.

<sup>8</sup> Седов К.Ф. О природе художественного текста // АРТ. Альманах исследований по искусству. Вып. 1. – Саратов, 1993. – С.13.

<sup>9</sup> Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – Москва: Искусство, 1986. – С.23.

Badiiy matn insonning kontseptual olamini, uning ruhiy dunyosini, borliq haqidagi tasavvurlarini namoyon qiladi. Matnning “obyektiv borliqning subyektiv obrazi” sifatidagi o‘ziga xos takrorlanmas ekanligi, unda umuminsoniy, milliy-o‘ziga xos va individual-shaxsiy xarakterdagi narsalarning aks etishida namoyon bo‘ladi<sup>10</sup>.

Badiiy personaj badiiy matnda syujetning yaxlit davomiyligi mobaynida personaj shaxsining faollashtiruvchisi vazifasini bajaruvchi lisoniy birliklar va vositalar kompleksi asosida mujassamlashadi. Lisoniy shaxsning muhim unsurlaridan biri, shubhasiz, uning nutqidir. Personaj nutqida uning ma’naviy olami, madaniyati va shaxsiy fazilatlarini ko‘rsatib beruvchi leksika aks etiladi. Shu tariqa, personaj leksikoni lisoniy shaxs diskursi tarkibining asosiy shakllantiruvchisigina bo‘lib qolmasdan, balki ekstralingvistik xarakterning ma’lumot manbasi ham hisoblanadi.

Muloqot-kommunikatsiya jarayonida nafaqat ma’lumot almashilinadi va kommunikantlar nafaqat lisoniy birliklardan, balki emotsiya ifodalovchi vositalardan ham foydalanishadi<sup>11</sup>. Insonning emotsiyasi va hissiyotlarini lisoniy ifodalanishini tahlili uchun, “ekspressivlik” va “emotsionallik” tushunchalarini ajratmoq zarur. Ekspressivlik – bu obrazlilik, jadallik yoki emotivlik bilan shartlanilgan so‘z yoki iboraning badiiy tasvir sifatidir. Obrazlilik, jadallik-intensivlik va emotivlik ekspressivlikni alohida holda ham, birgalikda – turli tuzilmalarda ham yuzaga keltirishi mumkin. Emotivlik ekspressivliksiz paydo bo‘lmaydi, ularni bir-biridan ajratish esa, amalda mumkin emas<sup>12</sup>. Emotivlik – bu lisoniy evrilishga uchragan emotsionallikdir, ya’ni ob’ektning ehtirosli baholanishi, inson kechinmalari, kayfiyati va tashvishlarining lisoniy va nutqiy ifodalanishidir<sup>13</sup>. Baho insonni anglash faoliyati sifatida o‘rganilayotgan yoki tasvirlangan obyekt tavsiflarini inson va jamiyat ongida yaxlit qayd etilgan shabloni bilan qiyoslash yo‘li bilan amalga oshiriladi<sup>14</sup>. Baho komillikning bir ko‘rinishi, turi sifatida ongimizga bog‘liq bo‘lmagan holda obyektiv mavjud<sup>15</sup>. Aynan shu sababli, baho ekspressiv va buyoqdor til birliklari: so‘zlar, iboralar, frazeologizmlar, maqollar va boshqalar bilan chambarchas bog‘liq. Badiiy asarda insonning emotsional holatini ifodalash uchun qo‘llaniladigan sintaktik konstruktsiyalar va gaplar emotsional deb nomlanadi<sup>16</sup>. Badiiy asarlar matnidagi personajlarning turli emotsiyalari va kechinmalarini, quvonch, baxt, azart, tantana, zavqlanish, g‘am, qoniqish, qo‘rquv, hayajon, rashk, jahl, g‘azab, shubha, kinoya,

<sup>10</sup> Ашурова Д.У. Художественный текст как экспонент культуры // Актуальные проблемы современной лингвистики. – Ташкент: VNESHINVESTPROM, 2021. – С. 39.

<sup>11</sup> Каримов Р. Тижорий ёзишмаларнинг прагматик хусусиятлари // Филология масалалари. Илмий-методик журнал. – Тошкент: ЎзДЖТУ, 2017. - № 1. – Б. 76.

<sup>12</sup> Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – Дубна: Феникс+, 2005. – С.210.

<sup>13</sup> Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – Дубна: Феникс+, 2005. – С. 209.

<sup>14</sup> Маджидова Р.У. Когнитивно-прагматический аспект паремиологической картины мира в пословицах разносистемных языков // Буюк ипак йўлида умуминсоний ва миллий қадриятлар: тил, таълим ва маданият. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Самарқанд: СамДЧТИ, 11-12 октябрь 2021. – Б. 77.

<sup>15</sup> Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка: Уч.пособие для магистрантов. – Москва: Флинта-Наука, 2010. – С.74.

<sup>16</sup> Гуломов А., Аскарлова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1987. – Б.65.

befarqlik, mazax va boshqalarni emotsional buyoqdor gaplar tasvirlaydi. Emotsional buyoqdor gaplar bevosita insonning lisoniy, fikrlash va psixik faoliyati bilan bog‘liq. Har bir tilda unga, uning egalariga mos o‘ziga xos emotsiya ifodalash modellari mavjud:

*Vulgar little beast. Him and his young lady. The nerve of asking if he could bring her to see me!* (Maugham W.S. «Theatre».1999, P. 282). Bu misolda haqoratni ifodalash uchun negativ baholovchi “*vulgar little beast*” (qo‘pol jonvor, qo‘pol, hayvon) so‘zlari ellipsis shaklida qo‘llanilgan. Keyin yana eliptik, haqorat so‘zlar adresati ko‘rsatilgan gap ishlatiladi. Negativ baho keyingi gapning g‘ayritabiiy tuzilishi bilan kuchaytirilib, so‘zlovchi g‘azabining sababi ayon bo‘ladi: “*The nerve of asking if he could bring her to see me*” (Uni oldimga taklif qilishdan oldin ruxsat so‘rashi mumkin edi!).

Emotsional buyoqdor gaplar quyidagi so‘zlar bilan shakllantirilishi mumkin:

1. undov so‘zlar yordamida;
2. yuklamalar ko‘magi bilan;
3. so‘roq olmoshlari ishtirokida;
4. talaffuz-intonatsiya orqali<sup>17</sup>.

So‘roq va undov belgilari badiiy asarga xos gaplarda odatda personajlar hayratini ifodalash uchun ishlatiladi:

*My dear, you’re too, too wonderful!* - said Harry Oakland. (Maugham W.S. «The Creative Impulse», 2016, P.364).

*Oh, well, you’ve been prepared for that nearly twenty years now, haven’t you?* (Maugham W.S. «The Creative Impulse», 2016, P. 95).

O‘zbek tilida hayrat yoki hayajonli alqov gapda *-ya, -chi, -u, -da* ko‘makchilari vositada ifodalanadi:

- *Yangi mingboshi, yangi qozi ham, desang-chi!* (Чўлпон А. “Кеча ва кундуз”, 2019, Б.91).

- *Noib to‘ra qo‘ymaydi-da, qandoq qilay.* (Чўлпон А. “Кеча ва кундуз”, 2019, Б.92).

Sintaktik qurilmalarning emotsional buyoqdorligi o‘zbek tilida *-axir, -ku* ko‘makchilari, shuningdek, *nahotki, shu qadar, nihoyatda, qanday* va boshqa so‘zlar yordamida kuchaytirilishi mumkin.

- *Men-ku hech narsa demas edim, - dedi u, - mana bu qizingiz xuddi bir suratga aylanib qoldi... Qo‘rqib yotibman ...* (Чўлпон А. “Кеча ва кундуз”, 2019, Б.114).

- *Badbaxt Fitna! Qo‘yasanmi, qo‘ymaysanmi, axir? “Hub-bil vatani minal-imon”, deganlar – “Vatanni sevish imondan”, axir! Bilmasang bekor-da, Vatani yo‘q – dunyoda lo‘li, xolos. Meni bevatan, deb bildingmi?*

*So‘fi biroz qizib ham ketdi:*

- *Bu hovli-joy otangdan qolgani uchun o‘zirniki deysanmi yo?* (Чўлпон А. “Кеча ва кундуз”, 2019, Б.15). Ushbu kichik kontekstda yetarli darajada keng

---

<sup>17</sup> Кахарова И.С. Инглиз ва ўзбек тилларидаги ҳис-ҳаяжон гапларнинг когнитив-прагматик талқини (Сомерсет Моэм асарлари мисолида) // PhD илмий даража ... дисс. – Тошкент, 2019. – Б.17.

hajmdagi ma'lumot yoritiladi: birinchidan, inson uchun uning uyi Vatani hisoblanib, faqat oliyjanob hamda taqvodor insongina uni sevishi mumkin. Ikkinchidan, tadqiqotning pragmatik aspekti yana bir sirni ochish imkonini beradi: personajning uyi unga xotinini otasidan, ya'ni qaynotasidan meros qolgan: “*Bu hovli-joy otangdan qolgani uchun o‘zimniki deysanmi yo?*”

Badiiy matnda inson chehrasining rangi personajning ichki psixologik kayfiyatini aks ettirishda muhim rol o‘ynaydi: *Qip-qizarib ketgan, hali qilichbozlik kiyimini echib ulgurmagani Jak Rival paydo bo‘ldi.* (Мопассан Ги де. “Азизим”. (Иброҳим Ғафуров таржимаси, 2016, Б.307). Keltirilgan parchada yuzning qizil rangi intensifikator bo‘lgan birlik bilan kuchaytiriladi “qip-qizil” (qizarib ketgan, yorqin-qizil tus) va sportchining kuchli emotsional hamda jismoniy holatini aks ettiradi. Ba’zan rang insonning kechinmalari va hissiyotlarini personajning psixologik holatining lisoniy tasviridan ko‘ra yorqinroq ifodalaydi<sup>18</sup>.

Goho yuz rangi-tusini o‘zgarishiga kutilmagan qayg‘uli xabar sabab bo‘lishi mumkin. Buning oqibatlarini tasvirlashda muallif mahoratini kuzatamiz:

*Madlena uyda ekan. U Madlenaning oldiga hansirab, hovliqqancha kirib bordi. Daf‘atan turib:*

*- Eshitganing yo‘qmi? Vodrek o‘layotibdi, - dedi.*

*Madlena xat o‘qib o‘tirgan ekan. Bu so‘zlarni eshitib ko‘zlarini eriga tiqdi-da, uch qaytalab so‘radi:*

*- A? Nima deding?.. Nima deding?.. Nima deding?*

*Madlenaning rangida rang qolmadi, yonoqlari tinmay ucha boshladi. U o‘rnidan turdi va qo‘llari bilan yuzini to‘sib, kuyinib yig‘lay boshladi.* (Мопассан Ги де. “Азизим”. (Иброҳим Ғафуров таржимаси), 2016, Б.368).

Keltirilgan misolda ichki kechinmalarning tasviri o‘zaro aloqador his-tuyg‘ularning mantiqiy zanjiri bo‘ylab tarqaladi. Ularni quyidagi shaklda keltirib o‘tish mumkin: 1) kutilmagan xabar – 2) bu xabarga munosabat (uch karra takror so‘rash) – 3) bu qayg‘uli xabarni dastlabki idroki (yuzining oqarib ketishi) – 4) natija (yig‘i).

Demak, badiiy matnda his-tuyg‘ularni ifodalash mexanizmi quyidagi bosqichlardan iborat:

1) Atrofdagi olamdan ma'lumotni qabul qilish. Ma'lumot bir so‘z, birikma, gap yoki butun matndan iborat bo‘lishi mumkin. Mazkur ma'lumot retsipientda aniq bir his-tuyg‘uni uyg‘otadi. Ma'lumot ko‘rish orqali ham qabul qilinadi. Bunda atrofdagi olamning biror ob‘ekti (inson yoki predmet) bo‘lishi mumkin.


2) Ko‘rilgan, eshitilgan, o‘qilgan ma'lumotni anglash va tahlil qilish.

3) Tashqi reaksiya va emotsional baho – mexanizmning oxirgi bosqichi. Unda inson olamdan qabul qilgan ma'lumotga nisbatan his-tuyg‘u va emotsional bahoni ifodalaydi.

Barcha bosqichlarni quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

---

<sup>18</sup> Простякова В.И. Саморегуляция эмоциональных состояний. – Москва: МОСУ, 2003. – С.11.



**1-rasm. Badiiy matndagi his-tuyg'ular mehanizmi**

His-tuyg'ular muallif nutqi va tasviri yordamida ham, personajlarning luqmalari va monoglari orqali ham yetkazilishi mumkin. Personaj nutqi nafaqat uning ma'naviy olamini, balki shaxsiy madaniyatini ham aks ettiradi. Tahlillarning ko'rsatishicha, badiiy matn – bu turli his-tuyg'ular, kechinmalar va hissiyot-eh-tiros-lar to'liqini uchun sahna bo'lib, ular o'zaro aralashib, kishilarning oddiy kundalik turmushlariga yangicha buyoq olib kiradi va uni o'zgartiradi.

Dissertatsiyaning **“Ingliz va o'zbek tilidagi badiiy asarlarda insonning turli hissiyotlarini tasvirlashning lingvokognitiv xususiyatlari”** deb nomlanuvchi ikkinchi bobida badiiy matnda insonga xos ijobiy emotsiyalarni, personajlarning salbiy his-tuyg'ulari hamda insonning neytral-betaraf psixo-emotsional holatini tasvirlashning lingvokognitiv o'ziga xosliklari tahlil qilinadi.

Tilga nisbatan kognitiv yondashuvning farqlovchi xususiyati til yaxlit hodisaning faqat bir qismi ekanligini tushunish bo'ldi, biz uni anglashga harakat qilamiz. Kognitiv fan bilim tuzilmalarining, lingvistikadan fan sifatida foydalangan holda, til yordamida bu tuzilmalarga aralashish imkonini berib, shakllanishi va faoliyati bilan bog'liq jarayonlarni o'zaro birlashtiradi.<sup>19</sup> Inson hissiyot-emotsiyalar va his-tuyg'ular manbasi bo'lib, antropotsentrik tilshunoslik, kognitologiya, psixologiya, falsafa va aralash fanlarning tadqiqot obyektiga aylanmoqda. Emotsiya vositasida inson his qiladi va atrof muhit obyektlariga o'z munosabatini ifodalaydi. Bundan xulosa qilish mumkinki, hissiyotlar insonning ichki va tashqi olamini o'zaro bog'laydi. Inson kechinmalari va hissiyotlari-emotsiyalarining kognitiv aspekti bevosita “til-tafakkur-emotsiyalar” triadasiga aloqadordir.<sup>20</sup> His-tuyg'u va hissiyotlarni ifodalovchi lingvistik vositalar bo'lib yuklamalar, so'roq olmoshlari, turli tinish belgilari, ko'makchilar, haqorat so'zlar va iboralar, vulgarizmlar, hissiy-ta'sirchanlik bo'yog'iga ega sifatlar va ravishlar

<sup>19</sup> Демьянков В.З. Доминирующие лингвистические теории в конце XX века // Язык и наука конца XX века, 1995. – С. 304.

<sup>20</sup> Гак В.Г. Эмоции и оценки в структуре высказывания и текста // Вестник МГУ. – Серия 9. Филология, 1997. - № 3. – С. 88.

va boshqalar xizmat qiladi. Ularni ko‘pincha “affektivlar” deb atashadi.

Emotiv leksika to‘g‘ridan-to‘g‘ri inson psixikasi bilan bog‘liq, zero emotsiyalar uning psixologik holatini ifodalaydi. Emotiv leksika ma‘nosini ifodalanish tiplarini ko‘rib chiqamiz:

1. Denotativ emotiv ma‘no, lug‘atlarda o‘z ifodasini topadi.

2. Fakultativ emotiv ma‘no, emotiv so‘zlarning konnotativ va predmetli-mantiqiy mazmunlarining o‘zaro aloqasida kuzatiladi.

3. Potensial emotiv ma‘no, potensial emotivlikni shakllantiradi.

Ekspressivlik va emotsionallik bir-biri bilan ajralmas aloqada turib, turlicha tinish belgilari bilan ifodalanishi namoyon bo‘ladigan boshqa kontekstni ko‘rib chiqamiz:

*E, ra‘ylari qursin, ra‘ylari! Yosh bolani bir hafta-o‘n kun saqlaydimi?*  
(Чўлпон А. “Кеча ва кундуз”, 2019, Б.77).

Emotsionallik va ekspressivlik semantik jihatdan ahamiyatlidir, chunki xabar faktining semantikasi va alohida so‘z semantikasi ekspressiv, emotsional hamda ekspressiv-emotsional ma‘no ohanglari bilan hamohang bo‘lishi mumkin. Bunday holatda xabar faktining mazmuni nafaqat uning denotativ mazmunidan (zero u ifodalanishi yorqinroq hamda ta‘sir intensivligi yuqoriroq hisoblanadi), balki son jihatdan ham farqlanadi, chunki ma‘lumotda (xabar faktidan tashqari) so‘zlovchining munosabati ham, uning psixik holati ham qo‘shiladi:

«*Who the dense asked you to talk about my affairs?*» // *Who asked you to talk about my affairs?* (Thackery W.M. «Vanity Fair». «A Novel Without A Hero», 1990, P.134). Keltirilgan birinchi misolda gapning emotsional-ekspressiv variantida axborot xajmi, stilistik neytral bo‘lgan ikkinchi gapdagidan ancha ko‘p.

Ingliz tilida emotsionallik va ekspressivlikni ifodalovchi vositalar yetarli darajada ko‘p. Ular sirasiga quyidagilar kiradi:

- emotiv-kuchaytiriuvchi ravishlar: *awfully, exceedingly, extremely, fragrantly, perfectly, terribly* va h.;

- ko‘makchilar: *deuce, damn, blazes, devil, thunder, hell (on) earth;*

- undov so‘zlar: *By George!, By Jove!, Good Heavens!, Damn your eyes!, Draw in mild!, Queen Ann’s dead!; A fine kettle of fish!, For crying out loud!*


Inson his-tuyg‘ulari badiiy kontekstda turli usullarda aks ettiriladi:

1. Personaj kechinmalari uning nutqi orqali yoritilib, u qo‘llagan turli so‘zlar va iboralar yozma tarzda, tinish belgilari bilan shakllantiriladi.

2. Muallif bayoni vositasida personaj his-tuyg‘ulari va hissiyotlari ikki xil shaklda yetkaziladi: personaj emotsiyalarining bilvosita tasviri hamda kitobxonga personajning emotsional kayfiyatini anglashga yordam beruvchi xatti-harakati va yuz ifodasining bevosita tasviri.

3. Tabiat hodisalari va atrof-muhitga oid hodisalarini tasvirlash orqali ham insonning emotsional holati metaforik tarzda tasvirlanadi.

Personajlarning psixo-emotsional holatining badiiy tasvirlash usullarini chizma shaklida quyidagicha namoyish etish mumkin:



## 2-rasm. Badiiy matnda his-tuyg'ularni tasvirlash usullari

Badiiy asarda hissiyotlar-emotsiyalar personajlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni aks ettiradi<sup>21</sup>. Bu munosabatlar ham ijobiy, ham salbiy baholar bilan tasvirlanadi.

Emotsional buyoqdor gaplar ko'pincha inversiyaga uchragan bo'lib, undov belgisi, gapning kutilmaganda uzilishi kabilar kuzatiladi:

... and looked, without any expression of countenance whatever, at some friends who had come on board with us, and who were crushing their faces into all manner of shapes by endeavoring to squeeze them through the small doorway. (Dickens Ch. «American Notes», 2017, P.8).

Personajlar nutqi uning ijtimoiy rolini ko'rsatadi va shaxsiy madaniyatini namoyish qiladi:

*Atrofda bir nazar solganidan keyin, "Be, bu joylar aytganday yaxshi emas ekan-ku!" deb o'yladi.* (Тургенев И.С. "Оталар ва болалар". (Малик Рахмон таржимаси), 2015, Б.24). Keltirilgan misolda personajning madaniyatsizligi va uning o'zini yuksak ehtirom bilan mehmon sifatida kutib olgan hududni bepisandlik bilan baholashi tasvirlangan.

Badiiy matndagi emotsional buyoqdor gaplar tadqiqi turli nuqtai nazardan o'tkaziladi. Masalan, grammatik konstruktsiyaga ko'ra emotsional buyoqdor gaplar quyidagi turlarga ajratiladi:

1. Emotsiya + ma'lumot – darak yoki so'roq gaplarda:

*Hokim necha marta g'azab bilan chaqirtirmadi! Unday vaqtlarda mingboshi Miryoqubning ta'limi bilan hamma savollarga "bilmayman", deb javob berar yoki biror ayb-isnod qilinsa, tonib tura berardi.* (Чўлпон А. "Кеча ва кундуз", 2019, Б.62).

2. Emotsiya + so'roq – so'roq gaplarda:

*Nima bu bemahal uyqu? Namozshom paytida-ya!* (Чўлпон А. "Кеча ва кундуз", 2019, Б.67).

<sup>21</sup> Лукьянова Н.А. Соотношение понятий экспрессивность, эмоциональность, оценочность // Актуальные вопросы лексикологии и словообразования. – Новосибирск: НГУ, 1976.-Выпуск V.- С.6.

### 3. Emotsiya + buyruq – undov gaplarda:

*Light be her heart, and gay her merry eyes for years!*( Dickens Ch. «American Notes», 2017, P.11)

Emotsional-buyuqdor gaplar turlicha emotsional ta'sir usullari bilan farqlanadi. Bu usullar verbal va noverbal usullarga bo'linadi. Verbal (so'z yordamidagi) ifodalanishdan farqli o'laroq, hissiyotning noverbal ifodalanishi turli qo'l harakatlari, tana harakatlari, yuz qiyofasi o'zgarishi, yig'i, kulgu va boshqalar bilan ajralib turadi. Bunday gaplarda emotsionallik-hissiyotni kuchaytirish maqsadida ko'pincha "kuchaytiruvchi", intensifikator deb nomlanuvchi so'zlar qo'llanadi, misol uchun o'zbek tilida *Xudoyim, Rabbim* va b. Ingliz tilida gap boshida so'roq olmoshlari qo'llaniladi. Qiyoslanayotgan tillardagi emotsional buyuqdor so'zlarning farqlovchi xususiyatlaridan biri o'zbek tilidagi darak gaplarda undov belgilarining tez-tez qo'llanilishidir:

*Shunday qilib, axiriy nomzod bo'lib, o'z uyinga qaytibsan-da, juda soz'-derdi.* (Тургенев И.С. "Оталар ва болалар" (Малик Рахмон таржимаси), 2015, Б.10).

Ingliz tilida darak gap so'ngida undov belgisi ishlatilmaydi.

Badiiy matnning emotsional mazmuni metoforik idrok yordamida yetkaziladi. Deylik, masalan, kuchli hayajon badiiy asarda ko'pincha metafora yordamida tasvirlanadi:

*Poshshaxon bilan Xadichaxonning boshlari osmonda edi.* (Чўлпон А. "Кеча ва кундуз", 2019, Б.72). Keltirilgan parchada o'zbekcha *boshi osmonda* metafora "baxtga to'la, juda baxtiyor" ma'noni anglatadi.

Emotiv leksika eksplitsit va implitsit tarzda ifodalanishi mumkin. Ikkala variant ham kontekstning umumiy semantikasiga ta'sir ko'rsatadi. Agar hissiyot va his-tuyg'ularning eksplitsit ifodasi tilda bir qator uslublar, tinish belgilari, sintaktik vositalar yordamida ifodalansa, implitsit ifoda insonning atrof-muhit ob'ektlari va hodisalari bilan munosabati natijasidagi xatti-harakati va nutqining bevosita bayoni bilan bog'liq bo'ladi. Badiiy asarda personaj emotsiyasi syujet asosidagi hodisalarga adekvat va noadekvat reaksiya tarzida namoyon bo'lishi mumkin. Sodir bo'layotgan voqealarga noadekvat emotsional munosabat namoyon qilingan misolni ko'rib chiqamiz:

*Birinchi marta qo'y kelgan kundan beri butunlay esidan og'ib kolgan Qurvonbibi fotiha to'yidan keyin biroz o'ziga kelgan edi. Bora-bora Zebinig ko'z yoshlari ham quridi.* (Чўлпон А. "Кеча ва кундуз", 2019, Б.111). Asar qahramoni bo'lgan ayolning noadekvat-nomutanosib kayfiyati: ona va o'rtasida kechadi, ular bo'lajak nikoh va to'ydan xursand emas, ular tushkunlikka tushib qolishgan, to'y inson hayotida shodyona, quvonchli hodisa bo'lsa-da ular yig'lashmoqda. Bu yerda ona va qiz yig'isining sababi, yosh qizni badavlat, qariya mansabdorga to'rtinchi xotin sifatida, uning roziligisiz va fikrini so'ramasdan uzatishdir.

Inson his-tuyg'ulari uning borliq obyektlariga munosabatiga qarab salbiy yoki ijobiyga bo'linadi. Ijobiy emotsiyalar atrof-muhit hodisalariga, obyektlariga nisbatan ijobiy baho, salbiy emotsiyalar esa, heqativ va salbiy tuyg'ular oqibatida yuzaga keladi. Badiiy personajning atrof-dagi kishilarga nisbatan do'stona munosabati, shunigdek, yaxshi kayfiyati ijobiy baho mujassam bo'lgan frazeologik

birlikda aks etadi: *hail fellow well met* – do‘stona munosabatli inson, mulozamatli, serulfat odam<sup>22</sup>:

*He spoke jovially to the customers, congratulated lucky winners, and generally had the hail fellow well met bearing which stamps the gaming house proprietor the world over.* (Hardy F. «Power without Glory», 2008, P.54).

Ijobiy hissiyotlar jamlanmasi quyidagi roman parchasida namoyish etilib, unda katta quvonch va minnatdorchilik hissi yosh qizlarning jismoniy harakatlari yordamida tasvirlanadi:

*Ikkala qizning uydan yugurib chiqib, bar-barobar Qurvonbibining bo‘yniga osilishlari ana o‘sha ne‘matning shukronasi edi. Qizlar o‘zlarining behad sevinchlarini yuzaga chiqarmoq bilan birga, onaga bo‘lgan minnatdorliklarini ham tegishicha izhor qilmoqqa oshiqardilar.* (Чўлпон А. “Кеча ва кундуз”, 2019, Б.23).

Ijobiy hissiyotning salbiyga aylanishi maxsus tanlangan lisoniy birliklar ko‘magida yoritiladi:

*G‘aflatda qolganlarning boshiga tushadigan tayoq yomon zil ketadi, deydilar. Bu ikkala qiz o‘yin va sho‘xlik havasi bilan g‘aflatda edilar.* (Чўлпон А. “Кеча ва кундуз”, 2019, Б.20).

Adabiyotda Shekspir tomonidan yaratilgan frazeologik birlik ommalashib ketgan: *the green-eyed monster* – ko‘k ko‘zli mahuq – “rashk” ma’nosida. Ilk marta Shekspirning “Otello” asarida tasvirlangan:

*Yago. O! Beware, my lord, of jealousy;*

*It is the green-eyed monster which doth mock,*

*The meat it feeds on....* (W. Shakespeare, “Othello”, act III, scene 3).

Badiiy personajlar tabiatida xotirjamlik va sabr-toqat qadrlanadi, buning dalili sifatida ommalashgan frazeologik birliklarni keltirish mumkin: *keep one's hair on* – xotirjamlikni saqlash, qizishmaslik; *patience on a monument* – sabrning o‘zi, sabr-toqat ramzi; *carry (keep) a stiff upper lip* – xotirjamlikni saqlash, kayfiyatni buzmaslik, mard turib berish:

*Your colleagues are good at keeping a stiff upper lip.* (Shaw B. «Back to Methuselah», e-version)

Dissertatsiyaning “**Ingliz va o‘zbek tillarida inson psixo-emotsional holatini tasvirlashning semantic-stilistik vositalari**” deb nomlangan uchinchi bobida ingliz va o‘zbek tillarida inson hissiyotlari-emotsiyalarini tasvirlashda qo‘llaniladigan lisoniy vositalarning tuzilishining o‘ziga xosliklari, uslublari va pragmatik vazifalari tadqiq etiladi, shuningdek, ingliz va o‘zbek tilidagi badiiy asarlarda insonning psixologik-emotsional holatini tasvirlashning umumiy va o‘ziga xos xususiyatlari aniqlanadi.

Frazeologik va paremiologik birliklar original matnlarda alohida o‘rin egallab, ularga betakror obrazlilik bag‘ishlab, u yoki bu til jamiyatining madaniyatini aks ettiradi. Aksariyat hollarda ular matnning emotsional qobig‘ini kuchaytiradi va qo‘shimcha ma’no hamda yerarxik tuzilmasini boyitadi:

<sup>22</sup> Кунин А. В. Англо-русский фразеологический словарь. – Изд. 3-е, испр., в двух книгах. – Москва: СЭ, 1967. – С.321.

*Jahlingiz chiqmasin, Muyassarxon, chin yurakdan bu. U shunday dedi-da, otiga qamchi urib, qirga o'rlab ketdi.*

Ingliz tilidagi bir qator ekspressiv frazeologizmlarda obrazlilik, intensivlik, emotivlik va baholashning murakkab aralashmasi kuzatiladi: (*as*) *fierce as a tiger* – yo'lbarsday quturgan; *swear like a trooper* – og'zidan bodi kirib shodi chiqyapti va boshqalar.

Ya.A. Pavlishevaning paremiologik va frazeologik tizimlar tadqiqining natijalariga ko'ra, frazeologizmlarning madaniy obrazlilikining ahamiyati bu obrazlarning milliy madaniyat (moddiy, ijtimoiy yoki ma'naviy) kategoriyalari, kontseptlari, mifologemalari, stereotiplari hamda uning talqinlari bilan muqoyasa qilinsa har tomonlama batafsil yoritilishi mumkin.<sup>23</sup> Masalan, o'zbek tilidagi ushbu frazeologizm milliy-madaniy o'ziga xoslikka ega: *do'ppini osmonga otmoq* – cheksiz quvonmoq; quvonchdan yettinchi falakka ko'tarilmoq. Ibora mazmuniga milliy o'ziga xoslikni olib kiruvchi "mag'zi" "do'ppi" (milliy bosh kiyim) leksemasi hisoblanadi. O'zbek tilida "jigar" leksemasi bilan ifodalanadigan ibora ham milliy-madaniy o'ziga xoslikni ifodalab, insonning ko'ngil kechinmalarini aks ettiradi, ammo inglizcha "liver" (jigar) so'zi haqida bunday deb bo'lmaydi, chunki bu so'z emotsiya-hissiyot ifodalovchisi bo'la olmaydi: *jigari ezildi* (yoki *jigar-bag'ri ezildi*) – "yuragi qayg'uga to'ldi, iztirob chekdi" ma'nosida:

*Qandoqqina bo'lib o'sding ekan? Ko'z oldimga keltirolmay jigar-bag'rim eziladi, yig'layman.* (Мухтор А. "Опа-сингиллар", 1955, Б.23).

Asarning badiiy syujetini tasvirlash jarayonida yozuvchi kitobxonni personajlar hayot yo'lining turli bosqichlari, ularning kechinmalari bilan tegishli so'zlarni topib tanishtiradi:

*Mingboshining ko'ngliga darhol iztirob tushib ulgurgan edi, shunday yaxshi bir xabardan keyinga qoldirilgan arz, albatta, xayriyatdan gapirmayapti.* (Чўлпон А. "Кеча ва кундуз", 2019, Б.96).

O'zbek fraeologiyasida yuksak darajadagi g'azab ifodasi bo'lib *jini qo'zidi* (ili *qo'zg'adi // tutdi*) – u quturib ketdi; qaynab ketdi<sup>24</sup> birikmasi hisoblanadi:

*Qalandarov maktab direktorini ko'rib badtar jini qo'zg'adi.* (Қахҳор А. "Танланган асарлар", 2015, Б.57).

Ingliz tilida ham ortirma nisbatdagi g'azab ifodalovchi ibora kuzatiladi: *rip and tear* – yirtmoq va to'zg'itmoq, quturmoq:

*We just sat there and watched him rip and tear around till he drowned.* (Twain M. «The Adventures of Huckleberry Finn», 2019, P.282).

Ingliz tilida shodlik va quvonch ifodalovchi iboralarni ko'rib chiqamiz: *be on the high ropes* – kayfiyati chog' bo'lmoq; boshini baland tutmoq, kibr bilan qaramoq; burnini jiyrmoq. Agar bu iborani uning tarkibiy qismi a'zolari semantikasi nuqtai nazaridan qaralsa, unda kayfiyatning chog'ligi «high» (yuqori) leksemasi bilan ifodalanganligini ko'ramiz:

*Yes, I went there the night before last, but she was quite on the high ropes*

<sup>23</sup> Павлицева Я.А. Фраzeология как источник гендерных стереотипов (на материале английского языка) // Наукови праці. Филологія. – Миколаєв, 2014. - № 209. – С. 65.

<sup>24</sup> Садыкова М. Краткий узбекско-русский фразеологический словарь. – Ташкент: Главная редакция Узбекской Энциклопедии, 1989. – С.106.

about something, and was so grand and mysterious that I couldn't make anything of her. (Dickens Ch. «American Notes», 2017, P.82).


Insonning hissiyotlari o'zgaruvchan, bunga tegishli turg'un iboralar dalil bo'ladi: *bahri-dili ochildi* (yoki *bahri ochildi*) – kayfiyati ko'tarildi; u quvonib ketdi:

*Dalaga chiqing, bahri-dilingiz ochilsa, quvvatga kirib ketasiz.* (O'zbek. «Күёш қораймас», 1976, Б.18).

Mazkur tadqiqotda his-tuyg'ularni ifodalovchi frazeologik birliklar statistik tahlilga tortildi va uch guruhga tasniflandi: ijobiy his-tuyg'ular, salbiy va neytral emotsional holat. Olingan statistik ma'lumotlarni jadvalda namoyish etamiz:

Tadqiq qilinayotgan til	Jami	Ijobiy his-tuyg'ular	Salbiy (negative) his-tuyg'ular	Neytral emotsional holat
Ingliz tili	335	78	218	39
	100 %	24%	65%	11%
O'zbek tili	258	114	132	12
	100%	44%	51%	5%

Olingan natijalarni diagramma shaklida ko'rsatish mumkin



3-rasm. Ingliz tili frazeologiyasida FBlarning soni



4-rasm. O'zbek tili frazeologiyasida FBlarning soni

Diagrammalardan ko‘rinib turibdiki, ikkala qiyoslanayotgan tillarda salbiy his-tuyg‘ularni ifodalovchi frazeologik birliklar eng katta guruhni tashkil qiladi. Ingliz tili frazeologiyasida salbiy emotsiyalar ijobiy his-tuyg‘ulardan ikki barobar ko‘pini tashkil qiladi. O‘zbek frazeologiyasida ijobiy his-tuyg‘ularni ifodalovchi birliklar ham katta guruhni tashkil qilib, salbiya his-tuyg‘ularni ifodalovchi frazeologizmlar soni bilan deyarli bir hil. Bu o‘zbek xalqining positiv fikrlashi, eng kichik omadga ham xursand bo‘lishi, yaxshi niyatlaru-umidlarda shukr qilib yashashi bilan izohlanadi.

Muhabbat kabi his-tuyg‘u haqidagi maqollar ingliz va o‘zbek tillarining paremiologik jamg‘armasida alohida guruhni tashkil etadi. Muhabbatning qudrati, uni bekitib bo‘lmasligi to‘g‘risida shunday maqollarni misol keltirish mumkin: *Love and a cough cannot be hid = Muhabbat va yo‘talni yashirib bo‘lmas*. Sevmaganga suykalma mazmunidagi maqol: *Love cannot be compelled = Zo‘rlab sevdirish – muzga bino qurdirish*. Sevgini boylikka almashligi to‘g‘risida: *Love neither bought nor sold = Sevgi pulga sotilmas*. Maqollarga ko‘ra muhabbatning ko‘zi so‘qir: *Love is blind = Sevgining ko‘zi ko‘r*<sup>25</sup>.

Paremiologik birliklarda xursandchilik har doim qo‘llab quvvatlanadi: *As marry as cricket = Kulgi chehra ochadi; It is a poor heart that never rejoices – O‘limdan achchiq narsa yo‘q, shodlikdan ortiq boylik yo‘q*. Maqolga xos tuzilmalarda quvonch va qayg‘u oppozitsiyasidan foydalaniladi: *An hour of pain is as long as a day of pleasure = Jahl bilan qartayasan, kulgi bilan yosharasan*. Tahlil qilinayotgan tillarda tarkibiy qismida antonimlar, o‘zaro qarama qarshi emotsiyalarni ifodalagan so‘zlar ishtirok etgan maqollar uchraydi: *That which was bitter to endure may be sweet to remember – Achchiq tuyulgan narsani balki keyinchalik eslash shirin bo‘lur*. Bu erda antonimlar: *bitter / sweet* va *achchiq / shirin*.

Matn lingvokognitologiya bilan chambarchas bog‘liq. Badiiy matnni yaratish – bu, avvalo, inson faoliyati sohasiga shaxsiy tafakkurning integratsiyasining yorqin va ishonarli namoyish etuvchi kognitiv jarayon bo‘lib, matn mutolaasi va baholanishi uning ma’nolarini anglash borasidagi yanada murakkab kognitiv faoliyatdir. Ingliz tilidagi personaj emotsiyasi uning tasavvuri hamda istaklarini tasvirlash vositasida uzatiladigan parchani keltiramiz:

*That this could by any possibility be that small snug chamber of the imagination, which Charles Dickens, Esquire, with the spirit of prophecy strong upon him had always foretold would contain at least one little sofa, and which his lady, with a modest yet most magnificent sense of its limited dimensions.* (Dickens Ch. «American Notes», 2017, P.7).

Badiiy dialog tasnifiga nisbatan turlicha nuqtai nazarlar va yondashuvlar mavjud bo‘lib, ular zamirida shunday mezonlar yotadi: a) badiiy dialog matning uzunligi (qisqacha va yoyiq); b) semantik va mavzu jihatdan mazmuni (maishi dialoglar, falsafiy, diniy, ijtimoiy xarakterdagi dialoglar, munosabatlarni yorituvchi, bahs-dialog, dialog-tortishuv, dialog-diskussiya, emotsional ta’sirchan

<sup>25</sup> Караматова К.М., Караматов Х.С. Proverbs. Мақоллар. Пословицы. – Тошкент: Мехнат, 2000. – Б.215-216.

dialog va boshqalar)<sup>26</sup>. Personajlarning emotsional holati namoyish etilgan bir nechta dialog shakllarini ko‘rib chiqamiz:

Dialog-bahs: - *Yaxshi kimyogar – har qanday shoirdan yuz karra foydaliroq, - dedi.*

- *Shunaqa deng-a, demak siz san‘atni e‘tirof etmas ekansiz-da?* - dedi Pavel Petrovich va qoshlarini uyqusiragan kabi sal ko‘tarib qo‘ydi. (Тургенев И.С. “Оталар ва болалар” (Малик Раҳмон таржимаси), 2015, Б.34). Bu misolda personajlar o‘rtasidagi baxs nafaqat ularning luqmalari, balki qiyofalarining o‘zgarishini ham tasvirlash orqali yetkaziladi.

Dialog-tortishuv: - *Tekinga pul topish san‘ati bo‘lmasa, bavoil ham bo‘lmaydi, - dedi Bazarov tahqiromuz jilmayib.*

- *Balli, balli shunaqangi hazillashayapman deng-a. Demak siz bularni barini bekor qilarkansiz-da? Xo‘p shunday ham bo‘lsin, binobarin, siz fakatgina fanga ishonar ekansiz-da?!* (Тургенев И.С. “Оталар ва болалар” (Малик Раҳмон таржимаси), 2015, Б.35). Ushbu dialog bir muncha hissiyotga boy, to‘ldirilgan va muammoli, bunga lisoniy vositalar tanlovi hamda personajlar luqmalarining sintaktik shakllantirish orqali erishilgan.

Oila a‘zolarining rollari munosabatini yorituvchi dialog: - *Zebini nimaga so‘rab edingiz? – dedi yana. Endi bu safar so‘fining achchig‘i keldi va birdaniga:*

- *O‘z qizimni so‘ray olmaymanmi!* - deb baqirdi. (Чўлпон А. “Кеча ва кундуз”, 2019, Б.77).

Til egasi va tarjimonning lingvokulturologik bilimi idioetnik qatlamga kiruvchi turli “lingvokulturemalarda” aks etadi<sup>27</sup>.

Hissiyotni tasvirlash orqali oilaviy munosabatlarning milliy o‘ziga xosligi nayiosh etiladigan o‘zbekcha romandan lavha keltiramiz:

*Mingboshi Miryoqubning qulog‘iga egildi.*

- *Kattaning rashki kelmas-a? – dedi.*

- *Eng kichigidan boshqa hech qaysisining rashki kelmaydi.*

- *Har qalay, katta xotiningiz esliroq.* (Чўлпон А. “Кеча ва кундуз”, 2019, Б.72). Bu erda uch xotinli Akbarali mingboshining katta xotining rashk qilmasligi va u yoshgina Zebiniso qizga to‘rtinchi xotin qilib uylanmoqchiligi haqida bormoqda. Kontekstda o‘tgan asrning boshlaridagi o‘zbek jamiyatiga xos bo‘lgan poligam nikohning o‘ziga xosliklari va turmush tarzi ochib beriladi. Badiiy kontekstda insonning emotsional holati va orasida alohida o‘rin egallagan metafora ajralib turgan uslubiy vositalarning uyg‘unlashuvi butun borlig‘i bilan chiroyli tasvirlanadi.

*In persons who were so soon to part, and interpose between their else daily communication the formidable barrier of many thousand miles of stormy space, and who were for that reason anxious to cast no other cloud, not oven the passing shadow of a moment’s disappointment or discomfiture, upon the short interval of*

<sup>26</sup> Нормуродова Н.З. Вербальные маркеры дискурсивной личности автора и персонажа в свете антропоцентризма // Актуальные проблемы современной лингвистики. Сборник научных статей. – Ташкент: VNESHINVESTPROM, 2021. – С. 148.

<sup>27</sup> Юсупов У.К. Концепт ва лингвокультуре атамалари хусусида // Stylistics in the light of Modern Linguistics trends. – Tashkent, 2011. – С. 34.

*happy companionship that yet remained to them – in persons so situated, the natural transition from these first surprises was obviously into peals of hearty laughter; and I can report that I, for one, being still seated upon the slab or perch before mentioned, roared outright until the vessel rang again.* (Dickens Ch. «American Notes», 2017, P.9). Keltirilgan ushbu kontekst o‘ta turlicha bo‘lgan kechinmalar tasviri bilan boyitilgan.

Farqlanish personajlarning emotsional kechinmalari taranglashishi uchun qo‘llaniladi:

*Asta-asta avj olayotgan bu tajang ovozlari allaqachon Zebining qulog‘iga etib, uning talvasasini besh battar ortirmoqda edi.* (Чўлпон А. “Кеча ва кундуз”, 2019, Б.78).

*And there she is! All eyes are turned to where she lies, dim afternoon; every finger is pointed in the same direction; and murmurs of interest and admiration – as “How beautiful she looks!” “How trim she is!” – are heard on every side.* (Dickens Ch. «American Notes», 2017, P.12).

Badiiy matndan qiyoslash uchun misol keltiramiz:

*“What a relish mulled claret will have down here!” which appeared to strike us all most forcibly; as though there were something spicy and high-flavoured in cabins, which essentially improved that composition, and rendered in quite incapable of perfection anywhere else.* (Dickens Ch. «American Notes», 2017, P.10).

*Es-hushi o‘zida bo‘lmagan bu jonsiz suratning yog‘ochday qotib qolgan qo‘llari va barmoqlari ila ro‘zg‘or ishlarini yana burungiday puxta bajarishlari – onaning qurigan ko‘zlarini ham yana yosh bilan to‘lg‘azib yuboradi.* (Чўлпон А. “Кеча ва кундуз”, 2019, Б.111).

Kinoya – so‘z ma‘nosini ko‘chishini nazarda tutuvchi usul, bunda jiddiylik niqobi ostida kulguli narsa yoki tasvirlanayotgan predmet yoki hodisaga nisbatan kulguli-rad etuvchi munosabat erkitiladi.

*Muncha eslik ekan bu Sultonxon ayang! – deb takror qildi Xadichaxon. – Muncha eslik ekan, a!* (Чўлпон А. “Кеча ва кундуз”, 2019, Б.53).

Ko‘rayapmizki, birinchi lavhada kinoya o‘z ma‘nosida faollashmoqda, ikkinchi misolda esa, ko‘chma ma‘noda.

Badiiy matnda personajlarning ichki emotsional kayfiyati, shuningdek, ularning xatti-harakati tasviri bilan ham yetkaziladi. Psixik holatni tavsiflashda personajlar chehrasining grimasalari va yuz ifodasi katta ahamiyatga ega.

- *Qishloqqa chiqib ketsa, yana yaxshi! – dedi Zebi. Shu topda uning yuzlariga quvnoq bir kulish yoyilgan edi.* (Чўлпон А. “Кеча ва кундуз”, 2019, Б.106).

To‘laqonli badiiy tarjima “ekvivalentlilik va adekvatlik” bazasisiz mumkin emas, ammo bunda tarjimaning kitobxonga estetik ta’siri inkor qilingan<sup>28</sup>. Endilikda tadqiqotchilar adekvatlik kategoriyasi mezonlarini ishlar ekanlar, uning muhimligini doim ta’kidlashadi. Adekvatlikning bosh printsipi quyidagicha bo‘lmog‘i kerak: “mazmunning lingvistik voqelanishining yaqinligi emas va hatto

<sup>28</sup>Никитченко Т.Г. Субъективный фактор в художественном тексте: лингвистический и психологический аспекты (на материале перевода): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Краснодар, 2000. – С.11.

nutqiy va poetik uslublarning umumiyliги ham emas, balki kontseptual mazmunning yaxlitligi hamda kitobxonga estetik ta'sirchanlikni qiyoslash mumkinligidir"<sup>29</sup>. Aytilganlarni misol yordamida dalillaymiz:

*Dyurua ikkilanib qoldi: boshi qotib turganining sababi, u hali biron marta xotini bilan don olishib, ustiga eri bilan ulfatchilik qilib ko'rmagandi.* (Мопассан Ги де. "Азизим" (Иброҳим Ғафуров таржимаси), 2016, Б.178). Keltirilgan parchada tarjimon jazmanining eri bilan kechki ovqatga taklif etilgan, o'zini yo'qotib qo'ygan yosh yigitning kechinmalarini yetkazib berishga erishadi. Bu hissiyotlarni tarjima matnida yetkazishga bira to'la ikkita o'zbek tilidagi frazeologizmdan foydalanish evaziga erishiladi: *ikkilanib qolmoq* – o'zini yo'qotib qo'ymoq va *boshi qotmoq (qotib turmoq)* – hayajon, afsus, hayratlanish kabilardan lol bo'lib qolmoq va boshqalar. Aynan ushbu frazeologizmlar, personajning psixik holatining aksariyat nozik qirralarini yetkazish orqali, kitobxonga emotsional ta'sir ko'rsatadi.

## XULOSA

1. Badiiy matn to'rt taraflama tadqiq etiladi: semantika, pragmatika, sintaktika va vazifa bajarishi. Badiiy matnning kognitiv aspektda tahlil etilishi muayyan lisoniy jamiyat uchun relevant bo'lgan mental modellarni, konseptlarni va vazifa yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi. Badiiy adabiyotda emotsiyalarni kognitiv aspektda o'rganish "til-tafakkur-emotsiya" triadasini namoyish qiladi. His-tuyg'u va emotsiya-hissiyotlarning mental markazida inson va uning hayotiy faoliyati turadi.

2. Emotsionallik tilda quyidagi vazifalarni bajaradi: 1) ko'rgan yoki eshitganlariga nisbatan emotsional munosabatni bildirishi, bu haqidagi ma'lumotni uzatishi, shuningdek, borliq ob'ektlariga nisbatan turli kechinmalarni ifodalashi mumkin; 2) atrof borliq ob'ektlari va sub'ektlari o'rtasidagi muayyan psixologik reaksiyalar va emotsiyalar bilan uyg'unlashgan munosabatlarni ko'rsatadi; 3) emotiv leksika, talaffuz va tinish belgilari sharofati bilan emotsional bahoni ifodalaydi.

3. So'zlar, birikmalar, frazeologizmlar va maqollar ekspressiv va emotsional buyoqli til birliklari bo'lib xizmat qiladi. Bu lisoniy vositalar yordamida kommunikantlarning emotsional holati yetkaziladi. Matnda inson hissiyotlari va his-tuyg'ularini yetkazuvchi boshqa vositalar sifatida ko'makchilar, yuklamalar, so'roq olmoshlari, tinish belgilari va talaffuz xizmat qilishi mumkin. Shu tarzda, leksik vositalar, uslublar va oddiy tinish belgilari hamda talaffuz gapda turli emotsiyalarni va badiiy asar qahramonlarining kechinmalarini uzatish imkoniga ega. Personajlarning emotsional-psixik holatini tasvirlashda tez-tez qo'llaniladigan vosita rang ramzlari hisoblanadi.

4. Badiiy matnlarda emotsiyalarni ifodalashning verbal va noverbal vositalari ishtirok etadi; noverbal vositalar turli qo'l va tana harakatlari, qiyofa o'zgarishi, yig'i, kulgu va boshqalar bilan ifodalanadi. Badiiy personajlar muayyan milliy

---

<sup>29</sup> Сологуб Ю.П., Альбрехт Ф.Б., Кузнецов А.Ю. Теория и практика художественного перевода. – Москва: Академия, 2005. – С.138.

madaniyat egasi bo'lgan inson hatti-harakatining jamoaviy hamda shaxsiy nutqiy stereotiplarini namoyon qilishadi.

5. Badiiy kontekstda his-tuyg'u va emotsiyalar turli usullar bilan tasvirlanadi: 1) personajning kechinmalarini ifodalashida har xil so'z va iboralardan foydalanadigan, tinish belgilari bilan yozma shakllantiriladigan nutqi orqali yoritiladi; 2) his-tuyg'u va emotsiyalarning bevosita tasviri hamda hatti-harakat va qiyofa ko'rinishini bilvosita tasviriga bo'linadigan, muallif tasviri vositasida; 3) insonning emotsional holatini metaforik tarzda ko'rsatib beradigan tabiat hodisalari hamda atrof borliq hodisalarini tasvirlash orqali.

6. Emotsiyalar ijobiy, salbiy va neytral guruhlarga bo'linadi. Badiiy matnlardagi ijobiy emotsiyalardan eng ommalashgani muhabbat, quvonch va zavqlanishdir. Badiiy diskursda tasvirlanadigan eng negativ emotsional holat tasviriga nafrat, rashk, jahl, g'azab, qo'rquv va agressivlik kiradi. Adabiy qahramonlar tabiatidagi xotirjamlik va sabr-toqat qadrlanadi.

7. Matn bevosita kognitiv lingvistika bilan bog'liq, chunki badiiy matnni yaratish – bu individual tafakkurning integratsiyasini namoyish etuvchi kognitiv jarayondir, matn mutolaasi va uni baholash – uning g'oyasi va mazmunini aniqlash borasidagi yanada murakkab kognitiv jarayondir. Badiiy matnni kognitiv stilistika aspektida tadqiq etish badiiy matn yaratilishi va idrok etilishi bilan bog'liq bir qator masalalarni o'rganish zaruratini ilgari suradi. Lisoniy vositalar tanlovi, ularning tuzilishini o'ziga xosligi va joylashuvi muallifning individual uslubini shakllantiradi.

8. Axborot ma'lumotlarini matn taqsimlanishining kognitiv printsipi ma'lumotning tanish va yangi ma'lumot sifatida farqlanishidan iborat. Tanish ma'lumot deyilganda bilimlarning umumiy jamg'armasiga tegishli bo'lgan, insonning ma'lumot tezaurusiga kiritilgan axborot tushuniladi. Yangi ma'lumot adresatga noma'lum bo'lgan xabarlar bo'lib, ma'lum bo'lgan ma'lumotga nisbatan aniqlanadi va adresatning mavjud bilimlarini kengayishiga va chuqurlashishiga xizmat qiladi. Matnning lingvokognitiv o'lchamlari personaj ichki olamini aks ettiruvchi mental tuzilmalar bilan mutanosiblikda lisoniy birliklar kontseptualizatsiyasi jarayonini ko'rib chiqishni taklif qiladi.

9. Badiiy matnni to'g'ri tarjima qilishi uchun tarjimondan nafaqat lingvistik bilim, balki borliq to'g'risida yaxlit bilim, g'oyaviy-estetik potentsial va olamni tasvirlashning individual printsiplari talab qilinadi. Tarjima adekvatligiga erishishning asosiy printsipi nutqiy va stilistik vositalarning umumiyligi emas, balki kontseptual mazmun va kitobxonga estetik ta'sirning birligi, yaxlitligi hisoblanadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01 ПРИ САМАРКАНДСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

---

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ  
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**НАРЗУЛЛАЕВА ДИЛНОЗА САНАТОВНА**

**ЛИНГВОКОГНИТИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ОПИСАНИЯ ПСИХО-  
ЭМОЦИОНАЛЬНОГО СОСТОЯНИЯ ЧЕЛОВЕКА В  
ХУДОЖЕСТВЕННОМ ДИСКУРСЕ  
(на материале английского и узбекского языков)**

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора философии (PhD по филологическим наукам)**

**Самарканд – 2024**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2021.1.PhD/Fil 1646.**

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков. Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета ([www.samdchti.uz](http://www.samdchti.uz)) и Информационно-образовательном портале «Ziynet» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

**Научный руководитель:** **Насруллаева Нафиса Зафаровна**  
доктор филологических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** **Киселёв Дмитрий Анатольевич**  
доктор филологических наук, доцент  
**Даниева Майсара Джамаловна**  
доктор филологических наук, доцент

**Ведущая организация:** **Бухарский государственный университет**

Защита диссертации состоится « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2024 года в \_\_\_\_\_ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01 при Самаркандском государственном институте иностранных языков. (Адрес: 140104, г. Самарканд, улица Бустонсарой, 85А. Тел: (99866) 233-78-43; факс: (99866) 210-00-18; e-mail: [info@samdchti.uz](mailto:info@samdchti.uz))

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (зарегистрирована за номером \_\_\_\_\_). Адрес: 140104, г. Самарканд, улица Бустонсарой, 93. Тел.: (99866) 233-78-43.

Автореферат диссертации разослан « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2024 года.  
(Протокол реестра рассылки за № \_\_\_\_\_ от « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2024 года)

**А.А.Яхшиев**  
и.о. Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

**Г.К.Мирсанов**  
Учёный секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук (DSc), доцент

**Ш.С.Сафаров**  
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук, профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы исследования.** В современной мировой лингвистике и литературоведении всё больше внимания обращается на связь языка с человеком и, следовательно, языковые явления исследуются в ракурсе антропоцентрической парадигмы. В мировом языкознании проблемы, связанные с выбором языковых средств для описания внутреннего мира человека, его эмоций и чувств, приобретают всё большую актуальность. В этом аспекте важную роль играет выбор стилистических, фонетических, лексических, пунктуационных и прагматических средств, используемых в текстах художественной литературы.

В ведущих мировых научно-исследовательских школах особое внимание уделяется изучению стилистических средств и лингвокогнитивных механизмов художественного описания чувств и эмоций человека, ведь сюжет любого художественного произведения опирается на определённое количество персонажей, которые, естественно, мыслят, чувствуют, переживают и выражают свои эмоции по поводу различных объектов и явлений окружающего мира. Выявление лингвокогнитивных особенностей описания психо-эмоционального состояния человека в художественном дискурсе позволит проникнуть в глубинный смысл идейных понятий художественных произведений, проследить особенности использования языковых средств и правильно переводить художественные тексты с одного языка на другой.

В независимом Узбекистане активно развивается интерес к изучению и чтению художественной литературы, глубже внедряется преподавание иностранной литературы в учебный процесс, а библиотеки и информационно-ресурсные центры обогащаются изданиями художественной литературы. Повышенный интерес к литературе, в частности за последние годы, объясняется тем, что литература позволяет человеку вернуться в прошлое и узнать о жизни предшественников, лучше понять их культуру, историю и быт. Преподавание иностранного языка с использованием художественных текстов является неотъемлемой частью педагогической деятельности преподавателя иностранного языка. Как отмечает Президент Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёев, «Молодёжь нужно приучать к чтению книг. Только после выполнения этих задач в нашем обществе появится читательская культура. Именно просвещение и образование являются ключом к процветанию народов, ведущим людей к благодеяниям, добру, терпимости»<sup>1</sup>. Чтение и анализ художественной литературы опирается как на лингвокогнитивный, так и лингвокультурологический потенциал текста. Особую значимость приобретают проблемы, связанные с функционированием в текстах художественных произведений эмоционально окрашенных единиц, междометий, знаков препинания и различных

---

<sup>1</sup> <https://upl.uz>; <https://uzreport.news>.

стилистических приёмов с целью описания психического состояния персонажей.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных рядом нормативно-правовых актов, таких как Указ Президента Республики Узбекистан № УП-4947 «О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан» от 7 февраля 2017 года, Указ Президента Республики Узбекистан № УП-4958 «О дальнейшем совершенствовании системы послевузовского образования» от 16 февраля 2017 года, Указ Президента Республики Узбекистан № УП-5847 «Об утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 8 октября 2019 года, Указ Президента Республики Узбекистан № УП-5850 «О мерах по кардинальному повышению роли и авторитета узбекского языка в качестве государственного языка» от 21 октября 2019 года, Указ Президента Республики Узбекистан № УП-60 «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года, также Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования» от 20 апреля 2017 года, Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-3775 «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах» от 5 июня 2018 года, Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-5117 «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан» от 19 мая 2021 года и др.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан: 1. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации по социальному, правовому, экономическому, культурному, духовно-просветительскому развитию информационного общества и демократического государства».

**Степень изученности проблемы.** Среди зарубежных учёных, чьи научные работы выполнены в аспекте антропоцентризма художественного текста и посвящены описанию эмоциональности и экспрессивности языковых средств, можно привести следующие имена: J. Boase-Bier, G. Lakoff, Robert Plutchik, Henry Kellerman, E. Stankiewicz и др.<sup>2</sup>. Так, Э. Стенквик (E. Stankiewicz) исследовал проблемы эмотивной лексики, а Роберт Платчик (Robert Plutchik) и Генри Келлерман (Henry Kellerman) внесли вклад в развитие теории эмоций в языке и тексте.

---

<sup>2</sup> Boase-Bier J. Stylistic Approaches to Translation. – Shanghai: Shanghai Foreign Language Education, 2016. – 178 p.; Lakoff G., Johnson M. Metaphors we live by. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 256 p.; Robert Plutchik, Henry Kellerman. Emotion: Theory, research, and experience // Theories of emotion. – New York: Academic, 1980. – Vol. 1. – P. 399-343.; Stankiewicz E. Problems of emotive language // Approaches to Semiotics / Ed. by Sebeok, Jh. A. London. – The Hague: Paris, 1964. – P. 239-264.

Обращение к персонажу как своеобразной «модели человека» в выражении чувств и эмоций в художественном тексте отмечается в ряде современных исследований таких русских лингвистов, как Н.Д. Арутюнова, М.М. Бахтин, Н.С. Болотнова, В.Г. Гак, К.Э. Изард, Б.Китерман, Л.И. Комарова, А.Н. Лук, Г.Г. Молчанова, Т.Г. Никитченко, В.И. Шаховский и др.<sup>3</sup>. К примеру, В.Г. Гак исследует эмоции и оценки в структуре высказывания и текста. Г.Г. Молчанова рассматривает имплицативные аспекты семантики художественного текста.

Антропоцентрическая парадигма и проблемы выражения экспрессивности, эмоциональности и оценочности художественного текста нашли отражение в научных трудах отечественных лингвистов: А.Абдуллаева, Д.У. Ашуровой, М.Р. Галиевой, Н.М. Джусупова, И.С. Кахаровой, Д.А. Киселёва, И.К. Мирзаева, Н.З. Нормуродовой, Б.Х. Реимова, Ш.С. Сафарова, Г.М. Хошимова, Д. Худойбергановой, А.Р. Шаймардановой, М.М. Юлдашева и др.<sup>4</sup>. Д.У. Ашурова исследует художественный текст как экспонент культуры. Б.Х. Реимов анализирует английские фразеологизмы, характеризующие эмоциональное состояние человека. Ш.С. Сафаров

---

